

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2022 Vol. 4

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2022 Vol. 4

**www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinbosarlari: Nodir Jo'raqo'ziyev

Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, G'aybulla Boboyorov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov.

Tahrir hay'ati

Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Maria Sabtelni (Kanada)
Frederik Bressand (Fransiya)	Timur Kocaoglu (AQSH)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Almaz Ulvi (Ozarbayjon)
Mark Toutant (Fransiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Emek Uşenmez (Turkiya)
Valeriy S. Xan (O'zbekiston)	Abdulvahap Kara (Turkiya)
Eunkyung Oh (Janubiy Koreya)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Zaynabidin Abdirashidov (Turkiya)	Dilorom Ashurova (O'zbekiston)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)	Darya Jigulskaya (Rossiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief: Nodir Jurakuziyev

Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboev, Samixon Ashirboev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Bakhtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov.

Editorial Committee

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Maria Subtelny (Canada)
Frederique Bressand (France)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ingeborg Baldauf (Germany)	Almaz Ulvi (Azerbaijan)
Marc Toutant (France)	Tanju Seyhan (Turkey)
Rochelle Almeida (USA)	Hisao Komatsu (Japan)
Akram Habibullaev (USA)	Emek Üşenmez (Turkey)
Valeriy S. Khan (Uzbekistan)	Abdulvahap Kara (Turkey)
Eunkyung Oh (South Korea)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Zaynabidin Abdirashidov (Turkey)	Dilorom Ashurova (Uzbekistan)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)	Daria Zhigulskaya (Russia)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Inomjon Azimov

“O‘zbek yangi alifbasini tuzishda asoslar” risolasi xususida.....6

Iroda Qahhorova

Taqlid so‘zlarning o‘rganilish darajasi va tasniflanish tamoyillari.....26

Jo‘ra Xudoyberdiyev

O‘zbek adabiy tilidan singarmonizmning chiqarilishi.....40

Marhabo Umurzoqova

Badiiy matnda lisoniy shaxsni belgilashning gender omili.....74

Alisher Ahrorov

O‘zbek xalq maqollarida “nutq odobi” ma’nosining ifodalanish darajasi.....86

Tarix. Manbashunoslik

Shamsiddin Kamoliddin

Buxoro imperiyasi yoki O‘zbekiston bo‘ylab sayohat.....100

San‘at

Gulabza Qarshiyeva

Sa‘diy Sheroziy “Bo‘ston” asarining Kamoliddin Behzod ijodidagi talqini.....128

CONTENT

Linguistics

Inomjon Azimov

Regarding the manual "Rules for creating a new Uzbek alphabet"6

Iroda Kaharova

The degree of study and classification principles of imitative words26

Jura Khudoyberdiyev

Extraction of synharmonism from the Uzbek literary language.....40

Marhabo Umurzakova

The gender factor of determining the linguistic

identity in the literary text.....74

Alisher Ahrorov

The degree of expression of the meaning of "speech etiquette"

in Uzbek folk proverbs.....86

History. Source studies

Shamsiddin Kamoliddin

Travel through the Empire of Bukhara or Uzbekistan.....100

Art

Gulabza Karshieva

The interpretation of the ideas of "Boston" epic of Saadi

Sherazi in the creativity of Kamoliddin Bekhzad.....128

LINGVISTIKA
LINGUISTICS**“O‘zbek yangi alifbasini tuzishda asoslar”
risolasi xususida**Inomjon Azimov¹**Abstrakt**

O‘tgan asrning boshlarida jadidlar nomi bilan tarix sahnasiga chiqqan millat fidoyilari iqtisodi, ilm-fani rivojlangan davlat qurishni orzu qildilar. Buning uchun, eng avvalo, millatni savodli qilish, zamonaviy bilimlarni egallagan yoshlarni tarbiyalash zarur edi. Shu maqsadda ular yangi usuldagi maktablar ochish harakatiga tushdilar.

Ming yildan ortiq davr mobaynida asosiy yozuv sifatida qo‘llanilib kelingan arab yozuvi o‘qish, o‘qitish ishlarida qiyinchilik tug‘dirayotgani sababli isloh qilindi. Arab yozuvi islohi kutilgan natijani bermagandan so‘ng boshqa turkiy xalqlar kabi lotin yozuviga o‘tish masalasi kun tartibiga chiqadi.

Arab yozuvidan lotin yozuviga o‘tish harakatlari boshlangandan keyin o‘zbek ziyolilari tomonidan mavjud tovushlarga harf tanlash, ularni ilmiy asoslash bo‘yicha matbuotda maqolalar e‘lon qilinib borildi, turli kengash yig‘ilishlari, anjumanlar tashkil qilindi. Yangi alifbo tuzishda singarmonizmli shevalarga asoslanish kerakmi yoki singarmonizmsiz, o‘zbek tili tabiatini ochib berolmaydigan, buzuq shevalarga asoslanish kerakmi? degan masala kun tartibida turar, bu masalada juda ko‘plab tortishuvlar, bahs-munozaralar bo‘lgan. Bunday tortishuvlar milliy alifbo yaratish harakatiga ham ta‘sir qiladi, natijada turli tashkilotlar tomonidan to‘rtta loyiha yaratiladi.

Maqolada ana shu loyihalarning oxirgisi – Boku konferensiyasi oldidan tuzilgan loyiha xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *alifbo, imlo, isloh, unli tovush, undosh tovush, singarmonizm, harf, fonema, yot harflar, yozuv.*

¹Azimov Inomjon Mamasodiqovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: inomjon66@mail.ru

ORCID ID: 0009-0001-4803-7166

Iqtibos uchun: Azimov, I. M. 2022. “O‘zbek yangi alifbasini tuzishda asoslar” risolasi xususida”. *O‘zbekiston: til va madaniyat* 4: 6–25.

Kirish

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ziyolilar o‘rtasida milliy o‘z-o‘zini anglash hissi kuchaydi. XVI asrdan boshlangan madaniy, ma’naviy inqiroz tufayli unutilar darajaga kelib qolgan boy madaniy va ma’naviy merosimizni tiklash, kishilar o‘rtasida o‘tmish madaniyatiga mehr-muhabbat hissini uyg‘otish harakati boshlandi. Bu harakatning yalovbardori sifatida jadidchilik maydonga keldi [Гурмонов 2012, 331]. Jadidlar o‘zbek tilining adabiy me‘yorlarini ishlab chiqish, o‘z qonun-qoidalariga ega bo‘lgan milliy tilimizning o‘ziga xos, betakror xususiyatlarini tadqiq qilish borasida jiddiy faoliyat olib bordilar.

Jadidlar millatning millat sifatida shakllanishi, tanilishida ma’lum qonun-qoidalarga solingan, ma’lum me‘yorga keltirilgan adabiy til zarurligini anglab yetganlar. Shuning uchun ham birinchi navbatda, milliy til qonuniyatlarini o‘zida aks ettirgan, savod chiqarish uchun qulay bo‘lgan alifbo yaratish, mazkur alifbo asosida imlo qoidalarini ishlab chiqishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydilar.

Ming yillardan ortiq davr mobaynida asosiy yozuv sifatida hech o‘zgarishsiz qo‘llanilib kelingan arab yozuvi o‘zbek tilining ichki qonuniyatlariga to‘g‘ri kelmaganligi sababli ko‘plab muammolarni keltirib chiqargan edi. Arab alifbosining o‘qitish, savod chiqarishdagi qiyinchiliklari, imlodagi muammolar tufayli o‘zbek jadidlari o‘rtasida ham alifboni isloh qilish masalasi kun tartibiga chiqdi. Shuning natijasida jadidlar orasida joriy arab alifbosini isloh qilish yoki bu alifbodan voz kechish kabi chaqiriqlar paydo bo‘la boshladi. H.Jamolxonov bunga quyidagi omillarni sanab o‘tadi: “1) eski o‘zbek tilidagi 8-9, yangi o‘zbek tilidagi 6-7 unli fonema faqat 3 ta harf – “alif”, “vov”, “yo” bilan ifodalangan; 2) ayri harflar polifonemali grafema tarzida qo‘llangan: “vov” harfi “v” undoshini va “u”, “o” unllilarini (demak, uchta fonemani), “yo” harfi ham uchta fonemani – “i”, “e” unllilarini va “y” undoshini ifodalagan; 3) “t” undoshi uchun ikki harf – “te”, “to”; “s” undoshi uchun uchta harf – “se”, “sin”, “sod”; “z” undoshi uchun to‘rtta harf – “zol”, “ze”, “zod”, “zo” qo‘llangan; 4) har bir harfning to‘rt shakli – so‘z boshida, o‘rtasida, oxirida yoki yolg‘iz qo‘llaniladigan allograflari bo‘lgan. Bunday holat maorif-ta’lim ishlarida va yozuv amaliyotida qator qiyinchiliklarni yuzaga keltirgan: ravon o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishga xalaqit bergan, matbaa-bosmaxona ishlarini murakkablashtirgan” [Жамолхонов, Умаров 2017, 11].

Arab yozuvidan lotin yozuviga o‘tish harakatlari boshlangandan keyin o‘zbek ziyolilari tomonidan mavjud tovushlarga harf

tanlash, ularni ilmiy asoslash bo'yicha matbuotda maqolalar e'lon qilinib borildi, turli kengash yig'ilishlari, anjumanlar tashkil qilindi. mazkur tadbirlar natijasi o'laroq, to'rtta alifbo loyihasi ishlab chiqildi.

“O'zbek yangi alifbosini tuzishda asoslar” risolasi

Mazkur risolada alifbo loyihasining so'nggisi o'z aksini topgan. Loyiha materiallari Abdulla Alaviy tomonidan yig'ilib, risola tarzida 1927-yilda nashr qilingan. Risolaning muqovasida u “Matiriyallardan to'plab tuzguchi: Abdulla Alaviy” deb yozib qo'ygan [Alaviy 1927].

Mazkur loyiha ancha mukammal, ilmiy asoslangan holda tuzilgan, munozarali o'rinlari ham bor, albatta. U O'zbekiston tomonining Bokuda bo'lib o'tadigan turkiyot qurultoyiga taqdim qilinadigan so'nggi xulosasi sifatida ta'kidlangan. Bu haqda Abdulla Alaviyning o'zi ham 1926-yilda “Maorif va o'qitg'uchi” jurnalining 6-sonida e'lon qilingan “Yangi layiha (Ilmiy Markaz layihagini quvvatlab)” nomli maqolasida “...Ilmiy markaz yaqinda butun O'zbekistandan vakillar charlab, bu masala haqqida bir kengash majlisi chaqiradir. Unda qabul qiling'an layiha sentabrda Bakuda bo'ladurg'an butun turk tillarining kengashi majlisiga taqdim qiling'usidir. U yerda turk xalqlari alifbo masalasida bir fikrga kelarlar – deb umid qilamiz” deb yozadi. Risolaning o'zida ham “... o'zbek latinchasining bu qarari ilmiy kuchli asosqa malik bo'lg'anidan Bakuda bo'laturg'an “alifbalarni birlashtiriru qunfiransiyasi” bu masalada o'zbek latinchilarining faydasig'a hukm etar” kabi fikr bor [Жамолхонов 2009, 51-53].

Loyihani ishlashda Ozarbayjon tajribasiga tayanganlar, ulardagi mavjud shakllarni aynan olishga harakat qilganlar. Bu haqda Abdulla Alaviy yuqoridagi maqolasida ham aytib o'tadi: “Shakl olishda Azarbayjandan ajralmaslik uchun azarbayjan sayitlarini aynan qabul qilg'an edi. Faqat ba'zi tavushlarni shakl olishda yanada ilmiyrak bir yo'l tutmak uchun Azarbayjandan bir az ajralgan edik” [Jamolxonov 2009, 53].

Loyihaning izohlar qismida alifboga shakllar olishda tovushlarni ikki guruhga – soyitalar (unlilar), somitalar (undoshlar) ga ajratilgani aytib o'tiladi. Ma'lumki, jadidlar tomonidan unli va undoshlarni ifodalash uchun bir necha atamalar qo'llanilgan. N.Yangibayeva “Avazlar” va “cho'zg'i harflar” – “harflar” atamalari qo'llanganini [Янгибаева 2019, 24], Sh.Bobomurodova “cho'zg'i – tavush harfi, tavushliq”, “tavushli – tavushsiz”, “hurufe samt – hurufe

sayt”, “cho‘zg‘ich – qisqa”, “cho‘zg‘i – cho‘zg‘isiz”, “so‘ziq - tartiq” kabi xilma-xil atamalar qo‘llanilganini aytadi [Бобомуродова 2002, 26]. Atamalarining bunday turli-tuman bo‘lishiga sabab jadidlar o‘sha paytda ozarbayjon, tatar, turk tilshunoslari bilan yaqindan aloqada bo‘lgani, ularning asarlari bilan tanishganidadir.

Yuqoridagi “sayit” – “samit” atamalarini aynan ozarbayjon tilidan o‘zlashtirganlar. Bu atama haqida Sh.Bobomurodova shunday yozadi: “dastlab turklar tovushlarning akustik belgisiga (ya‘ni ovoznining ishtirokiga ko‘ra) “sayt” (голосистый), “samit” (молчащий) kabi terminlarni belgilab olganlar” [Бобомуродова 2002, 26]. Ozarbayjon tilida bu atama hozir ham ishlatiladi [Ibrahimov, 37]. O‘sha davrda bu atamadan tashqari, “sesli” – “sessiz” atamasi ham qo‘llangan.

Risolaning birinchi bobi sayita (unli)larga bag‘ishlangan. O‘zbek tilida unli miqdorini aniqlash uchun, eng avvalo, adabiy til uchun tayanch shevani aniqlash vazifasi qo‘yiladi. Loyiha mualliflari tilimizda bir necha shevalar (lahja nazarda tutilmoqda – I.A) mavjudligi, ular fonetik va morfologik jihatdan farq qilishini ta‘kidlab, umumiy jihatdan ularni ikki guruhga – singarmonizmli va singarmonizmsiz shevalarga ajratadilar.

Boshqa turkiy tillarda bo‘lgani kabi bizning tilimizda ham tovushlar uyg‘unligi qonuniyati borligi e‘tirof etiladi: “Umuman har bir turk lahjalarida bo‘lg‘ani kabi bizning o‘zbekchada ham sayitalar ahangi (гармония глансных) qanuni bardur. Bu qanung‘a ko‘ra qalin so‘zlarga yopishqan qo‘shmachalar (suffiks) ham qalin, ingichka so‘zlarga yopishqan qo‘shmachalar ham ingichka bo‘ladir. Bu qonunni lisaniyatda sing‘armo‘nizm qanuni deydirilar”. Tarixiy sharoit tufayli tilimizga fors tilining ta‘siri kuchli bo‘lganligi, buning oqibatida singarmonizm qonuniyatining qisman yo‘qolgani, ayniqsa yirik shaharlarda bu qonuniyatning yo‘qolgani aytiladi. Shunga ko‘ra shevalarni eronlashuv darajasiga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratganlar:

Artuq darajada eranlashqan: Samarqand shevasi – 6 sayita, fars “alif”i, maf‘ul fiyaning eriga maf‘ul aliya ishlatilishi.

Bundan azraq eranlashqan: Tashkand shevasi – olti sayita, turk “alif (a)” sig‘a yaqin. Alifi maf‘ul fiyaning barlig‘i.

Undan azraq eranlashqan: Farg‘ana shahri shevasi – yetti-sakkiz sayita.

Undan ham azroq: anjan shevasi – to‘qquz sayita, bir az eranlashqan [Alaviy 1927, 7].

Loyiha mualliflari singarmonizm qonuniyati faqat yirik

shaharlarda, ba'zi shaharga yaqin shevalardagina yo'qolgani, qishloqlarda to'liq saqlanib qolganini, "bugun tilimizning shevalari yetarlik darajada tekshirilmagan bo'lsa-da, qo'limizda bo'lg'an matiriyal va sanalarga suyalib, xalqimizning saksan fayizi shunday shevada" gapirishini aytadilar.

Ma'lumki, unlilar miqdorini belgilashda jadidlar o'rtasida juda ko'p tortishuvlar, munozaralar bo'lgan. Mazkur loyiha muhokamasida ham professor Polivanov Toshkent shevasini asos tutish va uni adabiy til uchun asos sifatida olish taklifini beradi. U o'z fikriga dalil sifatida Toshkentning madaniy markaz ekanini, hozirda yozuvni biladiganlarning aksari shu shevaga yoxud shunga yaqin shevalarga mansub ekanini aytadi.

Jo'ra Xudoyberdiyev Polivanovning bu fikrini mahalliy aholi vakillaridan birortasi ma'qullamaganini aytib, Abdulla Alaviyning quyidagi fikrlarini keltiradi: "Profiso'r Polivanuf tarafidan olg'a surilgan bu fikrni yolg'iz ovrupoli mustarshiqlarning bir qismida o'ziga tarafdor topgan bo'lsa-da, o'zbeklar orasida buni yo'qlovchi bo'lmadi" [Xudoyberdiyev 1998]. Ayniqsa, Elbek keskin fikr bildiradi: "...sizning Tashkent, Samarqand shevalari ustidagi tekshirishingiz va alti cho'zg'ili Tashkent shevasini umum o'zbeklar uchun o'rtaq adabiy ravishiga kiritishka urinishingiz behuda, chunki sizning o'ylag'aningiz Tashkent shevasida 6 emas, 9 cho'zg'i tugal-to'kis bardir. Buni Tashkent tilbilarmanlari allaqachan tekshirib bilganlar. Amma Samarqand shevasiga kelsak, buni siz eranlashgan sheva deb yuritasiz. Halbuki, bu eranlashg'an sheva emas, balkim to'g'ridan to'g'ri fars tilining buzilg'ani bo'lib, uning o'zbek tiliga sira bag'lanishi yo'qtir. Albatta, shahar ichida fars irqlari ko'brak yashaydurlar, ularning buzib aytgan so'zlari o'zbek tili uchun tub – negiz bo'la almag'ani yanglig', shahar tegrasidagi o'zbek urug'larida sizning davangizga eng keskin qarshi javab bo'lib tushadir. Qisqasi, Tashkent shevasi o'zbekning adabiy tili ro'lin o'ynay almaydir" [Бобомуродова 2002, 44].

Otajon Hoshim ham Polivanovning bu fikrlariga munosabat bildirar ekan, Toshkent va Samarqanddagina singarmonizmga bir oz rioya qilinmasligi, bu shaharlar shevasini o'zbek tili asosiga olish yanglish ekani, o'zbek tili va lotin alifbosi uchun singarmonizmni saqlagan o'zbek shevalarini asos qilib olish lozimligi, chunki bunday shevalarda ba'zi shaharlar va butun qishloq o'zbeklari so'zlashini, biz tilni bir qancha ziyolilar uchun emas, balki keng omma uchun tuzish kerakligini aytadi. Uning "O'zbek tili" darsligi milliy tilning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettira olmasligini, shuning uchun bu

kitobni “Toshkent sarfi” deb atalsa, bir oz to‘g‘riroq bo‘ladi deydi [Жамолхонов, 105].

Loyiha mualliflari tomonidan tilimizning uzoq yillik tarixi, singarmonizmga asoslangan adabiy tilimiz mavjud bo‘lganini, hozirda yozuvni biladigan ziyolilarning aksari eronlashgan sheva vakillari bo‘lsa, kelajakda hamma savodli bo‘lishi, adabiy tilni bugun uchun tuzmasdan, kelajakni o‘ylab harakat qilish lozimligi aytiladi: “Biz masalaga bunday tarqaray almadiq, chunki birinchi: bizning (ya’ni, Turkistan turklarining) ko‘p asrlardan beri kelgan ahang qanunig‘a asos qiling‘an adabiy tilimiz bar. Bu til hamma shevalarga umumiy bir til bo‘lub kelgan. Butun yozuvlarimiz shu tilda yozilg‘an va buni hech kim yatsinmag‘an.

Bugungi o‘zbek tilining yuqaridag‘i tilning davami va bir az mukammallashgan shakli ekanida kim shubha etadir? Hal shunday ekan, bizning bu kunga qadar adabiy tilimiz bar bo‘lub kelgan ekan, bugun qaysi shevaga mansub bo‘lmasun yozuv bilaturg‘an kishimiz shunda yazar ekan, siz falan xilda til tuzungiz, falan tugan... deyishlar, behuda bo‘g‘iz yirtmishdir.

Ikinchi: yozuv bilaturg‘an kishilarimizning aksari eranlashg‘an shevaga mansub ekan, buning ahamiyati yo‘q. Avval xalqimizning ko‘pchiligi bo‘lg‘an kalimani nazarda tutamiz. Bugun savadlilarimizning ko‘bi eranlashg‘an shevalar vakillari bo‘lsa, yaqin zamanda xalqimizning hammasi savadli bo‘lishig‘a qat’iy va qattiq ishonamiz (maarifdagi yo‘limiz – shaharga bilim berib, qishloqni savadsiz qo‘yishqa asoslang‘an emas). Zatan til degan narsa yalg‘iz “bugun” uchun emas, balki “erta-indinlar” uchun ham kerakdir. Mana shul sabablardan o‘zbek yangi alifba qanfiransiyasi eski adabiy tilimizning ham aksariyat xalqimiz shevasining sing‘armanizimli ekanini ko‘zda tutub, ahang qanuni saqlang‘an shevalarni asosqa alib, to‘qquz sayita belgilaydir” [Alaviy, 8].

Millat taqdiri uchun istiqbolli qarorlarning qabul qilinishi, tarix va kelajak haqidagi bunday fikrga kelinishi jadid bobolarimizning yuksak dunyoqarashga ega ekanligidan dalolat beradi.

Loyihada quyidagi to‘qqizta unli tavsiya qilinadi:

1. (l) a-alif: at, tal, qalg‘an
2. (o) ə-hoyi-havvaz: mən, səmən, tən
3. (e) e-yo: er, sel, ter
4. (o) o-vov: qol, yol, tor
5. (o) o-vov: kəl, cəl, tər
6. (u) u-vov: qul, ur, tuz
7. (u) u-vov: kyl, yr, tyz

8. (ي)-yo: ql, il, alm
9. i- yo: sil, til, bilim [Alaviy, 9].

Ulardan “a, e, i, o, u” shakllari lotinchaning o‘zida ham aynan tovushlarni ifoda qilgani uchun bu harflarga to‘xtalinmagan. Yuqorida ko‘rib o‘tilganidek, may konferensiyasi loyihasida Ozarbayjon alifbosida qo‘llanganidek til oldi “u” unlisi uchun “u”, til orqa “u” unlisi uchun “u” shakli olinganligiga e‘tiroz bildirilgan. Ozarbayjonning bu xususda “u” masalasida ruslarga, “u”da esa fransuzlarga ergashishdan kelib chiqqan bo‘lishi mumkinligi aytiladi. Haqiqatan ham, fransuzlarda “u” til oldi unlisi, “u” esa ruschada orqa tovushini ifodalaydi, lekin bir harfda ruschaga, ikkinchi harfda fransuzchaga taqlid qilish mantiqsizlik ekani aytiladi. Shu bilan birga, bunday yo‘l tutish orqali quyidagi muammolar kelib chiqishi mumkin degan fikr bildiriladi:

1. Latin alifbasining o‘ziga mug‘ayirdir, chunki latin alifbasida “u” harfi arqa tavushi sifatida qo‘llanilib, “u” esa yunanchadan alingan so‘zlardagina yozilib ald tavushi sifatida ishlatiladi.

2. “u” harfi nemischada ham, yunanchadan kirgan yat so‘zlardagina yozilib, ald tovushi bo‘lub qo‘llaniladi.

3. Yevro‘pa ilmiy transkripsiyasida hukm surgan tasavvurga ham, latin harflari qo‘llanilishda bo‘lgan millatlarda ham ifoda etgan ma‘nosiga (tovushga) qarshidir, chunki bularning hammasida ham “u” ald tavush hisablanadi.

4. Baynalmilal funitiq alifbag‘a (bu yerda (Международный фонетический алфавит)¹ *Xalqaro fonetik alifbo* nazarda tutilyapti) qarshidir, chunki unda ham “u” harfi ald tavushni ifadalaydi.

1. Yaqut latin alifbasig‘a qarshi.

2. Bir necha turk xalqlarning sinav layihalariga mug‘ayir: masalan, qarachay layihasida “u” arqa, “y” ald unlisidir. Mana shu sabablardan o‘zbek latinchilarining avgust qonfiransiyasi “y”ni old sayitasi, “u” ni orqa sayitasi qilib qabul etdi [Alaviy, 10].

Mana shu fikrlarning o‘ziyoq jadidlarning harf tanlashda turli manbalarga murojaat qilgani, ulardagi fikrlarni o‘zaro qiyoslab yakuniy xulosaga kelganidan dalolat beradi. Ayni shu “u”, “y” masalasida to‘g‘ri qarorga kelinganini ularning bu qarorini Bokuda bo‘ladigan konferensiya qo‘llab-quvvatlashini alohida ta‘kidlab

¹Международный фонетический алфавит (Xalqaro fonetik alifbo) – lotin alifbosi asosida ifodalanadigan transkripsion belgilar tizimi bo‘lib, 1886-yilda fransuz tilshunosi Pol Passi boshchiligidagi bir guruh fransuz va ingliz o‘qituvchilari tomonidan tuzilgan tashkilot, 1897-yildan Международная фонетическая ассоциация nomi bilan mashhur bo‘lgan.

o‘tishdai.

Shu bilan birga, “ə”, “ө”, “i”, “ь” harflari, ularning tanlanishi xususida ham alohida to‘xtalangan. Bu harflarni olishda ikkita prinsipga, asosga amal qilingan:

1. Grafika, ya’ni yozmoqqa qulay bo‘lishi;

2. Boshqa turkiy xalqlarning alifbo va loyihalariga bir daraja yaqinlashmaq jihatidan. Shuning uchun ilmiy markaz tomonidan may konferensiyasida tavsiya qilingan “ä”, “ö” shakllarni tashlab, Ozarbayjon alifbosidagi “ə”, “ө” harflari olingan.

“ө” shakli haqida to‘xtalinib, Xalqaro fonetik alifbo (Международный фонетический алфавит)da hamda dat tilida shunga o‘xshash “Ф” shakli borligi, biroq bu grafik nuqtayi nazaridan “ө” dan qiyinroq bo‘lgani uchun mazkur shakl olingani aytiladi.

“ь” shaklini olishda esa “yumshatish belgisi” (“мягкий знак”) deb emas, balki ruscha “ы”ning qisqartirilgan shakli deb qabul etilgani, bu shakl Ozarbayjon alifbosida, Leningrad olimlari ilmiy transkripsiyasida¹ hamda bashqa bir qancha loyihalarda (masalan, qarachay loyihasida) borligi bilan izohlangan.

Mazkur konferensiyada “uv-uv”, “iy-iy” shakllari jiddiy munozaraga sabab bo‘ladi. Ba’zilar xuddi avvalgi loyihadagi kabi ularni alohida unli sifatida tavsiya qilsalar ham, ko‘pchilik ovoz bilan ular murakkab tovushlar (*unli+undosh*) degan qarorga kelindi: “Ba’zi o‘rtaqlar bularning basit ekanini so‘ylab, ayrim harf alishni taklif qilsalar ham, qanfiransiya g‘ayat ilmiy o‘laraq, bu harflarning murakkab ekanini isbat qildi ham ularni “ij”, “j”, “uv”, “uv” ravishda yazishqa qarar berdi” [Alaviy, 11-12].

Ma’lumki, qadimgi yozma manbalarda (umumturkiy tilda) unlilar cho‘ziqligi mavjud bo‘lgani, ular fonologik vazifani ham bajargani aytiladi. H.Ne’matov yozma yodgorliklari bizgacha yetib kelmagan davrlarda (umumturkiy tilda) turkiy so‘zlarda cho‘ziq va qisqa unlilar farqlangani, ayrim turkiy tillarda (turkman va yoqut adabiy tillarida, shuningdek, ayrim o‘zbek shevalarida) shu dastlabki cho‘ziqlik va uning qoldiqlari saqlanib qolgani, qadimgi turkiy tilda (O‘rxun-Yenisey obidalari tilida) cho‘ziq va qisqa unlilar yo‘qligini, eski turkiy va eski o‘zbek tilida cho‘ziq hamda qisqa unlilarning farqlanishi, ularning fonologik ahamiyati haqida qarama-qarshi

¹Ленинградская (Петербургская) фонологическая школа – taniqli olim I.A.Boduen de Kurtenening fonema haqidagi ilmiy qarashlari asosida vujudga kelgan zamonaviy fonologiyaning yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, L.V.Shcherba, L.P.Zinder, L.V.Bonarko, M.I.Matusevich kabi olimlar bu yo‘nalishning asoschilari hisoblanadi. Ular zamonaviy rus tilidagi fonemalar, ularning tabiati, hosil bo‘lish qonuniyatlarini o‘rganganlar, transkripsion belgilarini ishlab chiqqanlar (ru. Wikipedia.org).

ma'lumotlar mavjudligi, Mahmud Koshg'ariy, Tole' Hiraviy, Mirza Mahdixon, Fath Ali Kojariy va boshqa tishunoslar cho'ziq "a", ba'zan cho'ziq "i" unlisi haqida yozganini aytadi [Неъматов 1992, 25].

Q.Mahmudov birlamchi cho'ziq unlilar turkiy so'zlarning birinchi bo'g'inida sporodik holda grafik jihatdan ifodalangani, O'rxun-Yenisey yozma manbalarida ham ba'zi cho'ziq unlilar so'z boshida ayrim o'rinlarda maxsus belgilar bilan ifodalanganini yozadi [Mahmudov, 51]. Mahmud Qoshg'ariy cho'ziq "a" unlisini qo'sh alif bilan, cho'ziq "i" unlisini qo'sh alif kasra bilan, cho'ziq "u" unlisini alif hamda qo'sh "vov" bilan ifodalagani aytiladi [Махмудов 2006, 51; Неъматов 1992, 25].

Risolada ayni shu cho'ziq unlilar haqida gapirilib, qarachay, turkman, yoqut tillarida, o'zbek tilining qorabuloq shevasida saqlanib qolgani aytiladi: "Ilgari burung'i turk tilinda "o:, a:" kabi uzun tavushlar bor edi. Hazirda bu tavushlar turk lahjalarining bir azida (masalan, qarachay, turkman ham yaqut lahjalarida) ham o'zbekchanning ba'zi shevalarida (masalan, qarabuloq shevasida) saqlanib qalg'andir. Bularning o:d – alav, ot – ko'kat yaxud a:d – ism, at – ayg'ir kabi so'zlarning arasida farq bardir".

Shu bilan birga, turkiy tillarda so'zning o'rta va oxirida "g", "g'", "y", "h" tovushlarining tushib qolishi natijasida ham unlilar cho'ziqligi hosil bo'lishi aytiladi: bñz (ML,114) – bigiz; kñz (ML, 114) – kigiz; qñn (Xam.;BL, 71a) – qiyin [Неъматов 1992, 27]. Risolada ham mazkur hodisa ikki bo'g'inning qo'shilib ketishidan hosil bo'lishi, qirg'iz tilida mavjudligi haqida ma'lumot beriladi: "Bunday sayitalar iki hijaning qo'shulub ketkanidan yasaladir. Bu hadisa qirg'iz tilinda bardir. Bular uzunliqlari bilangina ayriladirlar. Masalan, er – zavj, e:r – egar" [Alaviy, 13].

Risolada diftonglar haqida ham ma'lumot beriladi. O'zbek tilida ma'lum fonemaning shakli darajasida diftong yo'q. U jips talaffuz etilgan yondosh unlidir. Bunday so'zda jips talaffuz etiluvchi yondosh unlilarni tilshunoslikda diftong nomi bilan atab: "ikki unlining bir bo'g'inda birikib kelishidir" – deb izohlanadi. o'zbek tilidagi diftonglarning ham tarkibidagi ikkinchi unli yarim unlidan iborat. Biroq u undoshga uringanroq unli emas, balki unli tomonidan assimilyatsiya etilgan jaranglidan kelib chiqqan yarim unlidir. Lekin hamma jaranglilar ham so'z tarkibida unlidan keyin qo'llanib, oldidagi unli tomonidan assimilyatsiya qilinavermaydi. Bunday jaranglilar sanoqli miqdorga ega. Ulardan biri lab sirg'aluvchisi "v" bo'lsa, ikkinchisi til o'rta sirg'aluvchisi "y" undoshidir [Неъматов 1992, 27].

Jadidlar diftonglarga nisbatan “chifta soyitalar” atamasini qo‘llaydilar. Ularga shunday izoh beriladi: “Bunda tar sayitalar o‘zlariga yaqin bo‘lg‘an “v”, “j” yapishadirlar. Masalan: “av”, “aj”, “oj” shuningdek, “uv” (suv), “j”–“ij”. Bularning tavushlaridan tarixiy jihatlarini sayitalardan chiqqanini ko‘ramiz. Masalan, “suv” so‘zining asli O‘rxun bitiklarining ko‘rsatishiga ko‘ra “suv”dir. Bu “v” (yumshaq) tavushi Mahmud al Kashg‘ariy o‘zining “Devanul lug‘at turk”ida “v” bilan “f” o‘rtasidag‘i bir tavushdir deb ta‘rif qilg‘an-durkim usmanlilarning “vazn” deganidagi “v”ning aynidir (ya‘ni xalis dudaq emas, balki dudaq va tish tavushidir). Qahira yazmasi “Qudatqu bilik”da “su” yaziladi. Bu tavush u zamanlarda samit edi. Bularning hozirda ham samit ekanini ularning sarfiy o‘zgarishi ham sayita o‘ldig‘i halatini ko‘rsatadi. Masalan, “suv – suvi”, “biy - biyi”. Bular haqiqatan samitadirlar, biraq “i” ning “j” ga, “v”ning “u”g‘a savtiy jihatdan yaqinlig‘i bularni sayitaga o‘xshatadi. Bu yerdagi halatlar qazaqlardag‘ilarning aynidir. Shuning uchun bu mas‘alani ilmiy jihatdan 24-yilning imlasida qazaqlar hal etgan kabi hal etish, ya‘ni ij”, “uv” kabi yazish lazimdir” [Alaviy, 13]. Ko‘rib turganimizdek, diftonglar haqidagi qarashlarda jadid tilshunosligi bilan hozirgi o‘zbek tilshunosligi o‘rtasida deyarli farqli jihatlar mavjud emas.

Uzun unlilar haqida munosabat bildirilib, bu fonetik hodisa mojar (venger), fin tilshunosligida ikki harf bilan – “oo”, “aa” tarzida ifodalanishi, bu ilmiy jihatdan ham, pedagogik jihatdan ham to‘g‘ri emasligi, xuddi yoqutlardagi kabi “o; a:” shaklida yozish ma‘qul ekanligi aytiladi. Hozirgi o‘zbek tilida ham tilshunoslik tarixiga, umuman fonetikaga oid asarlarda cho‘ziq unlilar “a:” yoki “ā” shakllari bilan ifodalanadi [Абдурахмонов, Рустамов 1984; Неъматов 1992; Махмудов 2006; Жамолхонов 2009].

Loyiha mualliflari alifbo tuzishda iloji boricha soddalikka intilganlar, “bir tovushga bir shakl” prinsipiga qat‘iy amal qilganlar, murakkab harf olish va harflar ustiga turli belgilar qo‘yishga yo‘l qo‘yilmagan. Bu haqda shunday fikr bildiriladi:

“1. Mumkin qadar tahlil (analiz) uchun o‘ngg‘ay bo‘lsun, ya‘ni yazuvda har bir basit unsurlarg‘a bo‘linishi mumkin bo‘lg‘an narsalar bo‘linsunlar, bunda bir necha tavushni ko‘rsatadurg‘an harflar (yunanchadag‘i “is” harfi kabi yalg‘an iqtisad bo‘lmasun).

2. Harflar ko‘b bo‘lmasun, balki mumkin qadar az bo‘lsun” [Alaviy, 13].

Samitalar (undoshlar)

Risolada konferensiya tomonidan qabul qilingan “f”, “d”, “h”,

“j”, “e”, “m”, “n”, “p”, “r”, “s”, “t”, “z” harflariga izoh berilmaydi, bunga sabab sifatida bu harflar lotin alifbosida ham ayni shu ma’noda ishlatilishi, ularning o‘zbek alifbosiga nima uchun olinganini ilmiy isbotlashga hojat yo‘qligi aytiladi. Quyidagi harflarning olinishi bo‘yicha ma’lumot beriladi:

1. “j” tovushi uchun lotin alifbosidagi kabi “w” shakli olinmay, “v” shakli olingan. Buning sababi quyidagicha izohlanadi:

a) yozuv – grafika iqtisodi va yengilligi,

b) lab va tish tovushini “v” bilan, lab tovushini “w” bilan yozish Yevropada odat bo‘lsa-da, o‘zbekchada bunday turli tovushning yo‘q, yolg‘iz lab tovushi bo‘lgan “j” bor, shuning uchun qaysi shaklda yozilsa ham zarari yo‘q, yengilroq bo‘lgani uchun “v” olindi [Alaviy, 15-16]. Haqiqatan ham, o‘zbek tilida bu undoshlar farqlanmasligi tilshunoslar tomonidan aytib o‘tilgan. Masalan, H.Ne‘matovning fikricha, “v” (lab-tish) va “v” (lab-lab) tovushlari turkiy tillarning eng qadimgi davrlari uchun xos bo‘lmagani, bu tovushlar keyingi taraqqiyot bosqichlarida so‘zning o‘rta va oxiridagi “b” va “g” tovushlaridan hosil bo‘lgan. U shunday yozadi: “XI-XIII asr yozma yodgoliklarida lab-lab va lab-tish “v” tovushlari arab yozuvi asosidagi yozuvda farqlangan. Lab-lab “v” arab tili va yozuvi bo‘lganidek, “و” (vov) harfi bilan berilgan. Lab-tish “v” esa “ف” (“fe” harfi ustiga ikki ko‘shimcha nuqta qo‘yish bilan berilgan. Lab-tish “v” talaffuzini Koshg‘ariy lab-tish “fe” va lab-lab “v” tovushlari oralig‘idadir, deb ko‘rsatadi. Uning so‘zlaricha, o‘sha davr adabiy tilida lab-tish “v” qoida bo‘lgan va ayrim shevalarda lab-lab “v” bilan almashgan. XIV asrdan keyin “ف” harfi umuman ishlatilmaydi va bu hodisa “v” va “v” orasidagi farq fonologik emas, balki fonetik bo‘lganligidan, ularning bir fonemaning turli ko‘rinishi ekanligidan dalolat beradi. Shuning uchun shevalar aralashishi natijasida “v” va “v” tovushlarini aralash qo‘llash keng tarqalgan va ikki harf bilan bu ko‘rinishlarni ajratishga ehtiyoj qolmagan [Неъматов, 63-64]. Turkiy yozma yodgorliklarni tadqiq qilgan Q.Sodiqov ham ayni shunday fikr bildiradi [Содиқов, 122]. G‘Abdurahmonov va A.Rustamovlar ham Alisher Navoiy asarlari tilida faqat lab-lab “v” qo‘llanganini aytadilar [Абдурахмонов, Рустамов 1984, 17]. Sababi loyiha mualliflari tomonidan “v” shakli to‘g‘ri tanlangan.

1. O‘zbek tilidagi “x” tovushi uchun lotin alifbosida bu tovushni ifodalovchi shakl bo‘lmagani uchun rus alifbosidagi “x” shakli qabul qilingan. Ikkinchidan, ozarbayjon alifbosida ham ayni shu shakl qo‘llanganini ham sabab bo‘lganligi loyiha mualliflari tomonidan izohlanadi.

“s” (“س”) va “z” (“ز”) harflari xususida

“س” va “ز” tovushlarini ifodalash uchun lotin alifbosida harf yo‘q bo‘lganligi sababli komissiya oldida ikki yo‘l bor edi:

Birinchi, bu tovushlarni bir necha harflar bilan ifodalash: “masalan, anglizchada “ch”, almanchada “tsch” ravishda ko‘rsatgan kabi”;

Ikkinchidan, yangidan harf tuzish yoki eski harflarga yangi shakliy ma‘no berish: “masalan, baynalmilal fanitiq imlada bo‘lg‘an “ŝ”, “ĉ” ishoralari kabi (bu harflar aslida “s - dz” ham “c - ts” harflariga “v” alomatini artdirish bilan yasalg‘andir)” [Alaviy, 16-17].

Birinchi usulni loyiha ishtirokchilari o‘zi tasdiqlagan tartibga ko‘ra qabul qilmadi. Bu bo‘yicha quyidagicha izoh beriladi: “Qanfiransiyaning tutqan yo‘li juda asosli va ilmiy bo‘lib, “bir tavushqa bir harf” degan prinsipda edi. Hatta “ئ” tavushi uchun ilmiy markaz tomonidan ko‘rguzulgan “ng” shaklini ham iki harfdan qo‘shilib yasalg‘ani uchun qabul qilmadi, yangi bo‘lsa-da bir harf bo‘lg‘an “n” shaklini aldi” [Alaviy, 17].

Loyiha ishtirokchilari “س” tovushi uchun “c” harfini olishga qaror qiladilar va bu qaror ko‘p loyihalar, jumladan, butun turk xalqlari uchun Moskvadagi Sharq xalqlari nashriyoti qoshida tuzilgan alifboga, Rossiya fanlar akademiyasi huzuridagi lisoniyotchi va turkiy olimlar tomonidan tuzilgan ilmiy alifboga, yoqut alifbosiga hamda boshqa bir qancha alifbo loyihalariga mos kelishi, faqat ozarbayjon alifbosiga mos kelmasligi, unda “ج” uchun “c”, “س” uchun “ç” harfi olingani aytiladi.

Shu bilan birga, “ج” uchun “c” shaklini turkiy xalqlar ichida birinchilardan bo‘lib yoqutlar qo‘llagani, bu alifboni tuzgan olim Novgorodov Xalqaro fonetik alifbo (Международный фонетический алфавит)dagi shakllardan ilmiy asosda olingani, Xalqaro fonetik alifboda “c-s” shakllari “dz, ts” tovushlarini ifoda qilishi, “ج س” uchun bu harflarning ustiga “v” alomatini qo‘yib, “č, š” ravishda qo‘llangani, biroq yoqut alifbosida “v” alomati tashlanib, “c, z” shaklida olingani aytib o‘tiladi.

Ayni yoqutlar tajribasiga tayangan holda “v” alomati tashlanib, “c” ning o‘zi olinadi. Shu tariqa yangi o‘zbek alifbo konferensiyasi “س” uchun “c” shaklini olishi bilan kifoyalanadi, chunki “č” harfini “ج” ga olish alifbo tuzish uchun belgilangan asosga qarshi (harf ustida alomat bo‘lgani uchun) edi.

Ozarbayjon olimlarining “ج” uchun “c”, “س” uchun “ç” harfini olgani “c” harfining lotin alifbosi tartibi bilan arab alifbosi tartibida “ج” harfiga to‘g‘ri kelgani bilan izohlanadi. Masalan:

ج	ب	ا
c	b	a.

Alifbo tartibidagi o'xshashlik haqida so'z ketar ekan, barcha tillar bir til – finikiya tilidan tarqalganini ham aytib o'tishadi: "Arab alifbasi bilan latin alifbasi harf tartibidagi mushabahati tasadifiy emas, balki latinaning yunancha arqali, arabcha boshqa samiy alifbalar arqali birinchi savtiy alifba bo'lg'an finika alifbasidan tarqalg'anidir" [Alaviy, 17].

Ozarbayjon ziyolilarining "ج" tovushi uchun "c" shaklini olishi haqida fikr bildirilganda, lotin harflari bilan foydalanadigan xalqlarning yozuvlarida bunday tajriba yo'qligi, bu yangilik "Yangi yo'l" alifbosini tuzganlarning ixtirosi ekanligi aytiladi. Ma'lumki, Ozarbayjon ziyolilari tomonidan 1922-yil may oyida Bokuda "Yangi turk alifbo" qo'mitasi tuziladi, "Yangi yo'l" mazkur qo'mitaning gazetasi bo'lib, alifbo loyihasi shu gazetada e'lon qilingan [Ibrahimov 2019, 41; Şimşir 1991, 6].

Ozarbayjon alifbosi mualliflari "ج" uchun "c"ni olgandan so'ng arab alifbosida bir-biriga o'xshash bo'lgan "ج-چ" ta'sirida "ç" shaklini olganlar. Ozarbayjon qardoshlarining bu tajribasi ham boshqa alifbolarda kuzatilmaganini aytishadi. "c" harfi fransuzchada "س" Xalqaro fonetik alifbo "كؤ-سؤ" o'rtasidagi bir tovushni ifada qilishi haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, "c" harfining qaysi tillarda qanday qo'llanilishi xususida ham fikr bildirilgan: " "c" ning addiy ma'nasi: 1) o'rta asr latin qiraati bo'yincha "e, i" harflaridan aldin "s - 2 ; "تس) qlassiq latinda hamma sayitlardan aldin "ك", o'rta asr latinda "a, o,u" dan aldin "3 ;"ك) (e-i) dan aldin italyanchada "چ", fransuzchada "س" " [Alaviy, 18].

Qorachoylar ham ozarbayjon tajribasiga tayanib, "c" ni "ج" ga, "ç" ni "چ" ga olganlar, lekin loyiha mualliflari "c" ni "چ" ga olishda yoqut hamda Leningrad loyihalariga qo'shilgan bo'lsalar-da, "ج" uchun harf olishda o'ziga xos yo'ldan boradilar, ular bu tovush uchun "z" harfini tanlaydilar. Buning sababini ozarbayjon alifbosida "ژ" tovushi uchun shu shakl olingani, loyihada "ژ" uchun alohida harf olinmagani, chunki bu tovush boshqa tillardan xabardor ziyolilar hamda ba'zi shevalarni hisobga olmaganida ko'pchilik tamonidan talaffuz qilinmasligi bilan izohlaydilar: "Masalan, "ژورنال" so'zini ko'pchilik "جورنال" deb o'qiydir ham "ژ" bilan so'ylanaturg'an so'zlar ko'p emas. Demak, "ژ" harfig'a bo'lg'an ehtiyoj bunda yo'q" [Alaviy, 19].

Haqiqatan ham, sirg'aluvchi "j" eski turkiy tilda faqat taqlidiy so'zlar tarkibida kela olganligi, eski o'zbek tilida forscha so'zlar-

dagina qo‘llanilgani, bu tovushning o‘zbek tilida mustahkam o‘rnashishi rus tilining bevosita ta‘siri ostida bo‘lgani aytib o‘tilgan [Неъматов 1992, 65]. Bu jihatdan jadidlarning ilmiy qarashlari to‘g‘ri ekanligini ta‘kidlagan bo‘lar edik. Shu bilan birga, “ج” tovushi uchun “z” shaklining tanlanishi muvaffaqiyatsiz chiqqanligini aytib o‘tish lozim. Shuning uchun ham Boku anjumanida barcha turkiy xalqlarning yagona alifboga o‘tilishi haqidagi qarori asosida 1929-yilda tasdiqlangan alifboda “ج” tovushi uchun “ç” harfi qabul qilinadi.

“k” (“ك”) va “q” (“ق”) xususida

Loyiha mualliflari “ق” uchun “q” shakli, “ك” uchun “k” shaklini qabul qiladilar va mazkur tovushlarni ifodalash uchun lotin alifbosidan foydalanadigan xalqlarda bu ikki harfdan boshqa shakl yo‘qligini aytib o‘tadilar. O‘z takliflarini quyidagi loyihalarga mos kelishi bilan izohlaydilar:

1) Xalqaro fonetik alifbo hamda umuman Yevropa ilmiy dunyosida qabul qilingan transkripsiyalar bilan, chunki ularda “k” harfi har doim chuqur til oldi tovushi “ك”ni, aksincha, “q” harfi chuqur til orqa tovushi bo‘lgan “ق”ni ifodalaydi va buning asosi, albatta, lotin yozuvining o‘zidir. Eski latin alifbosida esa “k” harfi ko‘p vaqt “c”ning o‘rinbosari bo‘lib yurar edi, “s” esa hamma vaqt chuqur bo‘lmagan “ك”ni ifodalalar, “q” harfi esa aksincha chuqur “ق”ni anglatar edi;

2) yoqut alifbosi bilan;

3) Leningrad ilmiy loyihasi bilan hamda bir qancha boshqa loyihalar bilan [Alaviy, 22].

Bu xususda faqat qorachaylar ozarbayjon alifbosiga ergashib, “ق” tovushi uchun “k” harfini, “ك” tovushi uchun esa “q” harfini olganlar. Demak, loyiha mualliflari bu harflarni tanlashda ham ozarbayjonlik hamkasblariga ergashmaydilar. Ularning mazkur harflarni olishda qanday asosga suyananlariga ham izoh berishga harakat qilganlar: “Yaqutlar baynalxalq alifbag‘a suyalg‘an kabi Azarbayjan birar funitiq transkripsiyuning ilmiy sistemiga suyalmasi, bunda rus ham fransuz alifbasining ta‘siri ko‘b bo‘ldi (umuman bu yangi yo‘l alifbasig‘a rus alifbasining ta‘siri ko‘b ekani achiq ko‘riladir, masalan, “ۇ” uchun “u” alishi). “q” ni “ك” alishning sababi shunday bo‘lsa kerak. Bu harfning fransuzcha ismi “قو” dir, shung‘a qarab alg‘an bo‘lsalar kerak. “q” ni “ك” uchun alg‘ach, “k” ni “ق” g‘a alishg‘a to‘g‘ri kelgan. Bu asos albatta juda za‘ifdir. Bakuda bo‘laturg‘an “alifbalarni birlashdiruv qonfirinsiyasi” bu haqda “Yangi yo‘l”ning fikrini o‘zgartar deb qabul qilamiz” [Alaviy, 21].

“g” (“گ”) va “q” (“ق”) xususida

Jarangli, til orqa tovushlari bo'lgan “گ”, “غ” uchun harf olish mutaxassislariga ancha qiyinchilik tug'dirgan, chunki “ك, ق” uchun lotin alifbosida “q”, “k” shakllari bo'lgani holda, “غ”, “گ” uchun harfning yo'qligidir. Loyiha mualliflari lotinchaning o'ziga va undan tarqalgan yozuvlardagi ma'nosiga, ya'ni ifoda qiladigan talaffuziga asoslanib, “گ” uchun “g” shaklini oladilar, chunki garchi fransuz va ingliz alifbosida bu harf “o”, “a”, “u” unli tovushlaridan oldingina “ك” (“k”) o'qilib, boshqa unilardan avval fransuzchada “ژ” (“j”), inglizchada “ج” (“c”) kabi o'qulsa-da, nemis, fin, eston, mojar yozuvlarida ham, lotinchada ham bu harfning ma'nosi hamma vaqt “ك”dir.

“غ” tovushi uchun ba'zi mutaxassislar tomonidan xuddi fransuzlarning “ch-ش”si kabi harfiy birikma olish taklifi beriladi, lekin ko'pchilik taklifga qarshi chiqadi, chunki taklif konferensiyaning “bir tovushga bir shakl” prinsipiga zid edi. Shuningdek, “v” belgisi bilan yasalgan “ĝ, ġ” shakllari ham yozuv jihatidan qiyinchilik tug'dirgani, murakkabligi uchun qabul qilinmadi. Qizg'in bahsmunozaralardan so'ng “q” shakli olinadi. Bu harfqa quyidagicha izoh beriladi: olmonlarning qadimgi “g'ut” yozuvining yozma shaklida uchraydi hamda ozarbayjon alifbosida ishlatiladi, biroq ularda bu harf “غ” uchun emas, “گ” uchun olingan, shu jihatdan o'zbek alifbosida juda to'g'ri va asosli o'laroq, sayoz til orqa “k” tovushi uchun “g”, chuqur til orqa “q” tovushi uchun “q” shakllari olindi [Alaviy, 21].

“n” (“ن”) xususida

Bu tovush ham loyiha mualliflari o'rtasida jiddiy munozaralarga sabab bo'ladi. Ayrimlar uni murakkab ekanini ta'kidlab, nemis hamda ingliz tillarida bu tovush “ng” harfiy birikmasi bilan ifodalanishini, shuning uchun xuddi ulardagi kabi berishni taklif qiladi. Aksariyat jadidlar esa singarmonizmli shevalarda bu tovush sodda, ya'ni “n” va “g”ga ajralmasligini ta'kidlaydilar: “Ba'zi o'rtaqlar bu tavushning murakkab ekanini da'va qiladilar. Bu eranlashqan shevalarning bir qismig'a ko'ra to'g'ridir, biraq shunda ham umumiy emas, masalan, Tashkandda “په نگی” so'zida murakkab eshitilsa-da, “کینگ”, “یینک” so'zlarida basit (sodda)dir. Sing'armo'nizmli shevalarda esa hama vaqt basitdir. Masalan, hijag'a bo'lsak: “qal-di-ñiz, kel-di-ñiz” kabi. Bu tavushning basitlig'ini bugungi Istanbul shevasida “ن” ga aylanganini ko'rsatish bilan isbat qilish mumkindir” [Alaviy, 22].

Shuning uchun ozarbayjon alifbosida hamda Xalqaro

fonetik alifboda yoqut alifbosida qo‘llanilgan “ŋ” shaklini olishni ma‘qul deb topadilar. Jadidlar tomonidan bu tovushga alohida shakl olinib, uni alifboga kiritilishini faqat olqishlash lozim, chunki bu tovush turkiylarning eng qadimgi tovushlaridan biri ekanligini tilshunoslar e‘tirof etishgan [Неъматов 1992, 65; Махмудов 2006, 66].

Konferensiyada ba‘zi mutaxassislar “dutarim diŋilladi”, “eshagim diŋilladi” degan jumalarda “ئڭ” (“ŋ”) uchun alohida harf olingani kabi “كڭ” tovushi uchun ham alohida harf olish taklifini beradi. Lekin bu taklif ham qabul qilinmaydi, chunki bu taklif qabul qilinganda, “tal” so‘zida “l” qalin, “til” so‘zida “l” ingichka talaffuz qilinishini hisobga olib ularga ham alohida shakllar olishga to‘g‘ri kelishi aytiladi. Haqiqatan ham, qipchoq shevalarida bu tovushning mavjudligi ilmiy adabiyotlarda aytib o‘tilgan [Миртожиев, 94].

Atoqli yozuvchi Abdulla Qodiriy “Mehrobdan chayon” romanida Xudoyorxon nutqidagi mazkur tovushni “ng” harfiy birikmasi bilan beradi. Bu haqda shunday yozadi: “Xudoyor qipchoqlar ichida o‘skani uchun tili o‘zbekchadir. Enalaring so‘zidagi “ng” harfini “ng” ravishida qalin so‘zlaydir. Bu kungi Farg‘ona o‘zbeklarida ham (ayniqsa qishloqlarda) yumshoq “ng” o‘rnida qalin “ng” ishlatish ko‘b eshitalidir. Hozirgi isloh qilingan harfimizda bu qalin “ng”ning maxsus shakli yo‘qdir. Yozg‘anda (n-g‘) harflaridan bir tovush yasalsa ham biroq o‘qug‘anda har kim buni o‘z mahrajida chiqarolmas, yanglish o‘qur. Bu qalin “ng” o‘zbekcha bir necha so‘zdagina ishlatilmay ko‘b (ellilab) so‘zda iste‘mol qiling‘ani uchun manimcha alohida bir shakl qabul qilish ehtiyoji his etiladi. Masalan, mashhurlari: zang‘, pang‘, lang‘, darang‘, qalang‘i-qasang‘i, dang‘, to‘ng‘uz, shang‘i, to‘ng‘illamoq, to‘ng‘, to‘ng‘uch va ang‘iz, ting‘ boshqalar... Eski “ning” “ng” ravishida isloh qilingan. Bu yo‘g‘on “ng” ham “g” harfining ustiga uch nuqta qo‘yulub yozilsamikin...” [Кодирий 2014, 346].

“z” (“ش”) xususida

Bu tovush uchun “z” harfining olinishi jiddiy munozaralarga sabab bo‘ladi, chunki Xalqaro fonetik alifboda bu tovush uchun “š” shakli olingan. Jadidlar o‘z qarorlarini qutidagicha izohlaydilar: “Hazirgi Avropa tillarida bu tavushlar bir necha harflar bilan ko‘rsatiladirlar (masalan, fransuzcha “ch”, inglizcha “sh”, latincha “sch”, pulakcha “sz”dir). Amma bunday usullardan qo‘nfransiya faydalanmaydir. Endi yangi harf tapishqa to‘g‘ri keladir. Avrupada mashhur baynaxalq fo‘nitiq alifbada ishlatilaturg‘an “š” harfini yazuvda (g‘rafiqa) qiyin bo‘lg‘ani uchun almadiq. O‘rusning “sh”

harfini ham shul sababdan almadiq, shuning uchun Azarbayjanda qo'llanmaqda bo'lg'an "z" shaklini aldiq. Albatta, bu avrupalilar uchun kutilmagan harf, chunki ularcha bu shakl hamma vaqt sadali tavushni ifada qiladir. Halbukim "ش" uning aksidir" [Alaviy, 24].

Lekin bu harfning muvaffaqiyatsiz tanlangani keyingi jarayonlarda isbotini topdi. Bokuda bo'lib o'tgan konferensiyada yagona alifbo qabul qilinadi va unda bu tovush uchun "ş" shakli tanlanadi.

Xulosa

Jadidlar boshqa alifbolardan qolishmaydigan, har tomonlama mukammal milliy alifbo yaratishni orzu qildilar. Buning uchun turli manbalarni, boshqa tillar alifbolarini o'rganib, bir necha loyihalar tuzdilar. Mazkur loyihalar qizg'in muhokamalar, munozaralar, tortishuvlar natijasida mukammallashib bordi.

Yana bir holatni alohida ta'kidlashni istardik. O'sha davrda faoliyat olib borgan jadidlarning ilmiy merosi hali to'liq o'rganilmaganligi, davr tilshunoligi to'g'risida ilmiy xulosa berilmaganligi sababli ularda ilmiy tajriba yetarli bo'lmagan, tilshunoslik bo'yicha xorij tajribalari bilan tanish bo'lmagan kabi xato tasavvurlar bor. Yuqorida ko'rib o'tilganidek, Xalqaro fonetik alifbo (Международный фонетический алфавит), Leningrad (Peterburg) fonologik maktabi (Ленинградская (Петербургская) фонологическая школа) faoliyati bilan tanish bo'lib, unga havola berishlari, ingliz, nemis, fransuz, dat, polyak kabi tillar alifbolari haqida fikr yuritishlari ularning yuqori ilmiya salohiyatidan darak beradi.

Adabiyotlar

- Abdulla Alaviy. 1927. *O'zbek yangi alifbosini tuzishda asoslar*. Toshkent-Samarqand.
- Abdulla Alaviy. 1929. *Maorif va o'qituvchi 6*. Toshkent.
- Абдулла Қодирий. 2014. *Танланган асарлар*. Тошкент: Шарқ.
- Абдурахмонов, Ф., Рустамов, А. 1984. *Навоий тилининг грамматик хусусиятлари*. Тошкент: Фан.
- Бобомуродова, Ш. 2002. *Ўзбек тилишунослиги ривожда Элбекнинг роли*. Филол. фан. номз. дисс... Тошкент.
- Bilal N. Şimşir. 1991. *Azerbaycan'da türk alfabesi (tarixçe)*. Ankara.
- Жамолхонов, Ҳ., Умаров, А. 2017. *Ўзбек ёзувининг XX аср тарихи*. I китоб. Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти.
- Жамолхонов, Ҳ. 2009. *Ўзбек тилининг назарий фонетикаси*. Тошкент: Фан.

- Нурмонов, А. 2012. *Танланган асарлар*. II жилд. Тошкент: Академ-нашр.
- Неъматов, Ҳ. 1992. *Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Маҳмудов, Қ. 2006. *Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси*. Тошкент: Ижод.
- Янгибаева, Н. 2019. *XX асрнинг 20-йилларида ўзбек тилшунослиги жараёни*. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... Қарши.
- Содиқов, Қ. 2006. *Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши*. Тошкент.
- Elçin İbrahimov. 2019. *Türk xalqlarinin ortaq əlifba, imla və ünsiyyət dili*. Bakı.
- Элбекнинг тилшуносликка оид асарлари*. 2001. Тўпловчи: Бобомуродова Ш. Тошкент.
- Худойбердиев, Ж. 1998. “Тилкаланишдан тикланишга”. *Миллий тикланиш* 15 (145). Тошкент.
- O‘zbek yangi alifbasini tuzishda asoslar*. 1927. Matiriyalardan to‘plab tuzguchi: Abdulla Alaviy. Samarqand – Tashkent. (arab yozuvida).

Regarding the manual “Rules for creating a new Uzbek alphabet”

Inomjon Azimov¹

Abstract

At the beginning of the last century, the devotees of the nation, who appeared on the stage of history under the name of Jadids, dreamed of building a state with a developed economy and science. To do this, it was necessary, first of all, to make the nation literate, to educate young people who have acquired modern knowledge. To this end, they established schools in a new way.

The Arabic script, which had been used as the main script for more than a thousand eras, was reformed due to difficulties in reading and teaching. When the reform of the Arabic script did not give the expected result, the issue of the transition to the Latin script, like other Turkic nations, comes to the agenda.

After the beginning of the movement for the transition from the Arabic script to the Latin, Uzbek intellectuals published articles on the selection of letters for the existing sounds, their scientific justification, and organized various council meetings and conferences. Should singarmonic dialects be based on when composing a new alphabet? Or should one be based on corrupt dialects without singarmonism, which cannot reveal the nature of the Uzbek language? This issue was standing on the agenda, and there were a lot of disputes and controversies on this issue. Such controversies also influenced the movement of creating a national alphabet, resulting in the creation of four projects by different organizations.

The article describes the last of these projects, the project created before the Baku conference.

Key words: *alphabet, spelling, reform, vowel sound, consonant sound, singarmonism, letter, phoneme, foreign letters, writing.*

References

Abdulla Alaviy. 1927. *O'zbek yangi alifbosini tuzishda asoslar*. Toshkent-Samarqand.

¹*Inomjon M. Azimov* – Candidate of Philological Sciences, Associate Professor Tashkent state university of the Uzbek Language and Literature named after Alisher Nava'i.

E-mail: inomjon66@mail.ru

ORCID ID: 0009-0001-4803-7166

For citation: Azimov, I.M. 2022. “Regarding the manual “Rules for creating a new Uzbek alphabet”. *Uzbekistan: Language and Culture* 4: 6–25.

- Abdulla Alaviy. 1929. *Maorif va o‘qituvchi 6. Toshkent.*
- Abdulla Qodiriy. 2014. *Tanlangan asarlar.* Toshkent: Sharq.
- Abdurahmonov, G., Rustamov, A. 1984. *Navoiy tilining grammatik xususiyatlari.* Toshkent: Fan.
- Bobomurodova, Sh. 2002. *O‘zbek tilshunosligi rivojida Elbekning roli.* Filol. fan. nomz. diss... Toshkent.
- Bilal N. Şimşir. 1991. *Azerbaycan’da türk alfabesi (tarixçe).* Ankara.
- Jamolxonov, H., Umarov, A. 2017. *O‘zbek yozuvining XX asr tarixi.* I kitob. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.
- Jamolxonov, H. 2009. *O‘zbek tilining nazariy fonetikasi.* Toshkent: Fan.
- Nurmonov, A. 2012. *Tanlangan asarlar.* II jild. Toshkent: Akademnashr.
- Ne‘matov, H. 1992. *O‘zbek tilining tarixiy fonetikasi.* Toshkent: O‘qituvchi.
- Mahmudov, Q. 2006. *O‘zbek tilining tarixiy fonetikasi.* Toshkent: Ijod.
- Yangibaeva, N. 2019. *XX asrning 20-yillarida o‘zbek tilshunosligi jara-yoni.* Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss... Qarshi.
- Sodiqov, Q. 2006. *Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi.* Toshkent.
- Elçin İbrahimov. 2019. *Türk xalqlarının ortaq əlifba, imla və ünsiyyət dili.* Baki.
- Elbekning tilshunoslikka oid asarlari.* 2001. To‘plovchi: Bobomurodova. Toshkent.
- Xudoyberdiev, J. 1998. “Tilkalanishdan tiklanishga”. *Milliy tiklanish* 15 (145). Toshkent.
- O‘zbek yangi alifbasini tuzishda asoslar.* 1927. Matiriyalardan to‘plab tuzguchi: Abdulla Alaviy. Samarqand – Tashkent. (arab yozuvida).

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

O'zbekiston: til va madaniyat (O'zTM) – zamonaviy O'zbekiston (sobiq Turkiston) bilan bog'liq bevosita Markaziy Osiyo mintaqasini birlashtiradigan til, tarix, san'at, etnografiya, madaniyat va ijtimoiy fanlar sohalarini qamrab olgan ilmiy jurnaldir. O'zTM munozarali, zamonaviy, innovatsion, konseptual jihatdan qiziqarli, original mavzudagi ilmiy tadqiqotlarni nashr qiladi. Jurnal lingvistika, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, din, falsafa, ilohiyot, fan, ta'lim, metodika, sotsiologiya, psixologiya, tarix, madaniyat, san'at, etnologiya, etnografiya, antropologiyaga oid ilmiy yo'nalishdagi maqolalar va taqrizlar hamda konferensiya hisobotlarini qabul qiladi.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo'lyozmalar o'zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, boshqa turkiy tillarda ham qabul qilinadi. Agar muallif o'z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr ettirmoqchi bo'lsa, unda qo'lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etilishi lozim.

Qo'lyozmalar MS Word (.doc) formatida (uzlangcult@gmail.com) elektron pochta-siga yuboriladi. Iqtiboslar va izohlar uchun MS Word menejerini qo'llash mumkin.

Barcha qo'lyozmalar tahririyatga muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma'lumot bilan taqdim etiladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig'i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo'lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantiriladi. Maqola matni 3 000–5 000 so'zdan iborat bo'lishi kerak.

O'zbek va ingliz tillarida 100–150 so'zdan iborat abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so'zdan kam bo'lmagan kalit so'zlar (o'zbek va ingliz tillarida). Abstraktda maqolaning qisqacha mazmuni va dolzarbligi, tadqiqot natijalari aks etishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati 5 sahifadan oshmasligi kerak.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo'lishi mumkin) 1500 so'zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so'ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo'limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to'q bo'yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o'zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tilda yozilgan bo'lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – to'q bo'yoqda, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki"

shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satr boshidan, boshqa barcha qatorlari xatboshidan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

VII. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

VIII.1. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*, Shahar: Nashriyot nomi.

Qudratullayev, Hasan. 2018. *Boburning adabiy-estetik olami*. Toshkent: Ma'naviyat.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Qudratullayev 2018, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya, kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011 (a), 99]

[Sirojiddinov 2011 (b), 67]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Abdurahmonov, G'anijon, Alibek Rustamov. 1984. *Navoiy tilining grammatik xususiyatlari*. Toshkent: Fan.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdurahmonov, Rustamov 1984, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq mualliflari bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismlari to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda birinchi muallif ismi yoziladi va "boshqalar" deb ko'rsatiladi.

[Familiya va boshqalar kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Abdug'afurov, Abdurashid. 2016. "Badoye' ul-bidoya"ning tuzilish sanasi". *XX asr o'zbek mumtoz adabiyotshunosligi*, Olim To'laboyev muharrirligida, 174–184. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdug'afurov 2016, 176]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Mamatov, Ulug'bek. 2018. *O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari*.

Toshkent: Mumtoz so'z. <https://kitobxon.com/uz/catalog/sanat/>. 12.03.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mamatov 2018, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2017, 19-hujjat]

VIII.2. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi". *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Mahmudov, Nizomiddin. 2013. "Termin, badiiy so'z va metafora". *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 3 – 8. Toshkent.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mahmudov, 2013, 5]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Aminov, Hasan. 2018. "O'zbekiston san'atida temuriylar siymosi". *O'zbekistonda xorijiy tillar* 2: 246 – 253. doi: 10.36078/1596780051.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

VIII.3. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro‘yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo‘yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo‘lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko‘rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. “Jomiy “Xamsa” yozganmi?.” *O‘zbekiston adabiyoti va san’ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Jabborov, Rustam. 2019. “Navoiyning Tabrizda yashagan xorazmlik kotibi”. *UZA: O‘zbekiston Milliy axborot agentligi*, 08.12. <https://uza.uz/uz>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Jabborov 2010, 17]

Maqola so‘ngida foydalanilgan adabiyotlar o‘zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro‘yxati ikki qismdan iborat bo‘lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko‘rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o‘zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini “The Chicago Manual of Style, 16th Edition” qo‘llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko‘rib olishingiz mumkin.

GUIDELINES FOR CONTRIBUTORS

Uzbekistan: language and culture is an academic journal, publishing research in linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies. We aim to publish cutting edge, innovative, conceptually interesting, original case studies and new research, which shape and lead debates in multifaceted studies. We do not publish economic analyses or policy papers. Any opinions and views expressed in publications are the opinions and views of the authors, and the publishers are not responsible for the views/ reviews of the contributors.

The journal is published four times a year. The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcomed. In addition to research articles, the journal welcomes book reviews, literature overviews, conference reports and research project announcements.

1. General

- Submission Guideline

1. Manuscripts may be submitted at any time during the year. However, if the author wishes to have his/her manuscript published in a certain issue of the journal, the submission should be made at least five months in advance of the proposed publication date.

2) Manuscripts should be submitted by email (uzlangcult@gmail.com) as an attachment in MS Word document (.doc) format and use MS Word Source.

3) All manuscripts should be submitted with a cover page including an email address, a mailing address and a short introduction about the author(s) /contributor(s).

2. Manuscript format

1) The main texts should be written in Times New Roman font, 12 point, and single-spaced in 44 pagination with 1-inch margins.

2) Submissions must follow the author-date system of *The Chicago Manual of Style*, 16th Edition.

3) Quotations are given in brackets in the text.

4) A research article should normally be no more than 9,000 words in length, including the following contents:

- an abstract of 150-200 words (in English, Russian, and Uzbek) and seven to ten keywords;

- a list of references of no more than five (5) pages;

- tables and figures, if any.

5) A book review should generally be about 1,500 English words (or other languages) in length, and must include the heading and closing in the following format:

- Heading: *Title of the Book*. By Author's Name(s). City of Publication: Publisher Name, Year. pp. Price, ISBN:, (hardcover/paperback).

- Closing: Book reviewer's name, affiliation and postal address at the end.

6) Style Points Headings. Limit: Four levels.

Level 1. Title Style (e.g. the first letter of each word upper case, except prepositions), Bold, and 14 point.

Level 2. Title Style, Italics, 14 Point.

Level 3. Modified “down” style (first letter upper case, or first letter of first two words if the first word is an article), Bold, and 12 point.

Level 4. Modified down style, Bold, 11 point.

3. Style and Usage

1) Translation

- Translated excerpts from classical texts or non-English sources should be annotated with clarification of its original/published language and translator. Likewise, “Author’s own” translations of quoted texts should be noted as such.

- The author is expected to provide an English translation of key terms in the work, rather than a translator without expertise in the subject.

- Excerpts or quoted texts from published translation will not be edited. However, UzLC editors may query or modify translations of key terms or texts provided by the author.

- Where necessary, short supplementary information such as dates, an item in its original characters, or the Romanized form of a non-English item, may be included.

- Names of foreign publishers, and titles of sources published in a foreign language should primarily appear in Romanized form without translation. However, if necessary, a translation may be added in brackets ([]).

2) Names and Terms

- Place Names (foreign):

Designation for division of areas should be either translated or hyphenated after the given area name.

Designation for geographical/structure names are not hyphenated, and appear without the equivalent English term.

Institutional names are considered proper nouns. Their names should appear following the preference of the individual institutions.

3) The descriptive designation of a period is usually lowercase, except for proper names or traditionally capitalized terms.

4. Quotation

1) Block Quotations:

- A block quotation should start with double line spacing and an indentation from the left margin. From the second paragraph of the block quotation, additional paragraph indentation is needed.

Texts in block quotation should be written in Times New Roman 10 pts., and not be entirely italicized.

5. Others

1) There is one space after sentence punctuation and not two.

2) The end parenthesis, closing quotation mark, and footnote numbers come after the sentence punctuation.

3) For parentheses within parentheses, use brackets ([]).

6. Basic Citation Format

The following examples illustrate citations using the **author-date** system. Each example of a reference list entry is accompanied by an example of a corresponding parenthetical citation in the text. For more details and many more examples, see chapter 15 of *The Chicago Manual of Style*.

BOOK

Reference List (hanging indent):

Pollan, Michael. 2006. *The Omnivore's Dilemma: A Natural History of How Eating Has Evolved*. New York: Penguin.

In Text Cite:

[Pollan 2006, 99–100]

Reference List (hanging indent):

Ward, Geoffrey C., and Ken Burns. 2007. *The War: An Intimate History, 1941–1945*. New York: Knopf.

In Text Cite:

[Ward and Burns 2007, 52]

For four or more authors, list all of the authors in the reference list; in the text, list only the first author, followed by et al. (“and others”):

[Barnes et al. 2010, 847]

Reference List (hanging indent) book chapter:

Kelly, John D. 2010. “Seeing Red: Mao Fetishism, Pax Americana, and the Moral Economy of War.” In *Anthropology and Global Counterinsurgency*, edited by John D. Kelly, Beatrice Jauregui, Sean T. Mitchell, and Jeremy Walton, 67–83. Chicago: University of Chicago Press.

In Text Cite:

[Kelly 2010, 77]

Chapter of an edited volume originally published elsewhere (as in primary sources):

Reference List (hanging indent) book originally published elsewhere:

Cicero, Quintus Tullius. 1986. “Handbook on Canvassing for the Consulship.” In *Rome: Late Republic and Principate*, edited by Walter Emil Kaegi Jr. and Peter White. Vol. 2 of *University of Chicago Readings in Western Civilization*, edited by John Boyer and Julius Kirshner, 33–46. Chicago: University of Chicago Press. Originally published in Evelyn S. Shuckburgh, trans., *The Letters of Cicero*, vol. 1 (London: George Bell & Sons, 1908).

In Text Cite:

[Cicero 1986, 35]

BOOK PUBLISHED ELECTRONICALLY

If a book is available in more than one format, cite the version you consulted. For books consulted online, list a URL; include an access date only if one is required by your discipline. If no fixed page numbers are available, you can include a section title or a

chapter or other number.

Reference List (hanging indent):

Austen, Jane. 2007. *Pride and Prejudice: A Novel in Five Books*. New York: Penguin Classics. Kindle edition.

In Text Cite:

[Austen 2007, 101]

Reference List (hanging indent):

Kurland, Philip B., and Ralph Lerner, eds. 1987. *The Founders' Constitution*. Chicago: University of Chicago Press. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders>

In Text Cite:

[Kurland and Lerner, chap. 10, doc. 19]

JOURNAL ARTICLE

Article in a print journal

In the text, list the specific page numbers consulted, if any. In the reference list entry, list the page range for the whole article.

Reference List (hanging indent):

Weinstein, Joshua I. 2009. "The Market in Plato's Republic." *Classical Philology* 104:439–58.

In text cite:

[Weinstein 2009, 440]

Article in an online journal

Include a DOI if the journal lists one. A DOI is a permanent ID that, when appended to <http://dx.doi.org/> in the address bar of an Internet browser, will lead to the source. If no DOI is available, list a URL. Include an access date only if one is required by your discipline.

Reference List (hanging indent):

Kossinets, Gueorgi, and Duncan J. Watts. 2009. "Origins of Homophily in an Evolving Social Network." *American Journal of Sociology* 115:405–50. doi:10.1086/599247.

In text cite:

[Kossinets and Watts 2009, 411]

Article in a newspaper or popular magazine

Newspaper and magazine articles may be cited in running text ("As Sheryl Stolberg and Robert Pear noted in a New York Times article on February 27, 2010..."); they are commonly omitted from a reference list. The following examples show more formal versions of the citations. If you consulted the article online, include a URL; include an access date only if your discipline requires one. If no author is identified, begin the citation with the article title.

Reference List (hanging indent):

Mendelsohn, Daniel. 2010. "But Enough about Me." *New Yorker*, January 25.

In text cite:

[Mendelsohn 2010, 68]

Reference List (hanging indent):

Stolberg, Sheryl Gay, and Robert Pear. 2010. "Wary Centrists Posing Challenge in Health Care Vote." *New York Times*, February 27. <http://www.nytimes.com/2010/02/28/us/politics/28health.html>.

In text cite:

[Stolberg and Pear 2010, 12]

WEBSITE

A citation to website content can often be limited to a mention in the text ("As of July 19, 2008, the McDonald's Corporation listed on its website . . ."). If a more formal citation is desired, it may be cited as in the examples below. Because such content is subject to change, include an access date or, if available, a date that the site was last modified. In the absence of a date of publication, use the access date or last-modified date as the basis of the citation.

Bibliography (hanging indent):

Google. 2009. "Google Privacy Policy." Last modified March 11. <http://www.google.com/intl/en/privacypolicy.html>.

In text cite:

[Google 2009]

Reference List (hanging indent):

McDonald's Corporation. 2008. "McDonald's Happy Meal Toy Safety Facts." <http://www.mcdonalds.com/corp/about/factsheets.html>.

In text cite:

[McDonald's 2008]

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan 0936-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos
Hojib ko'chasi 103-uy.
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz
E-mail: uzlangcult@gmail.com

Bosishga 30.12.2022-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 1/16, Ofset bosma. "Cambria" garniturasida.
Shartli b.t. 7,51. Nashr b.t. 7,62.

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali tahririyatida tayyorlandi va sahifalandi.
"YASHNOBOD NASHR" bosmaxonasida chop etildi.
Adadi 300 nusxa. Buyurtma №2.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahar Yashnobod tumani,
58-a harbiy shaharcha.